

«TASDIQLAYMAN»

Toshkent Pediatriya Tibbiyot  
institutining rektori,

B.T. Damirov

(imzo)

2022 yil «    »

## TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

### REJA – MOLIYA BO'LIMI

#### NIZOMI

##### 1.Umumiy qoidalar

• Mazkur nizom Toshkent pediatriya tibbiyot institutida Reja-moliya bo'limi faoliyatini yoritib beruvchi asosiy me'yor va tamoyillarni belgilab beradi.

• Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti reja – moliya bo'limi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Xay'at qarorlari xamda buyruqlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Xay'at qarorlari hamda buyruqlari, yo'riqnoma xatlari, institut Kengashi qarorlari va rektor buyruqlari, institut Ustavi va reja – moliya bo'limi Nizomi asosida olib boradi.

##### 2.Bo'limning vazifalari va funksiyalari

- Institutning faoliyatini rejalashtirish va mablag' bilan ta'minlashini tashkil etish;
- belgilangan muddatlarida institut daromadlar va xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini (byudjet, byudjetdan tashqari to'lov-kontrakt va boshqa byudjetdan tashqari) ishlab chiqib, Sog'liqni saqlash vazirligidan ro'yxatdan o'tkazish;
- tasdiqlangan shakllarga asosan har yili talab etiladigan byudjet so'rovnomasini tayyorlaydi;
- institutning hisob bo'limi va institut boshqa tuzilmalari bilan hamkorlikda institutni ta'minlashga ajratilgan pul mablag'laridan to'g'ri va samarali foydalanishga erishish;
- turli yo'nalishlarga pullik xizmatlar uchun kal'kulyatsiyalarni ishlab chiqish;
- professor-o'qituvchilar, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv yordamchi xodimlar tarkibining egallab turgan lavozimi, unvoni, darajasi va razryadi ko'rsatilgan qaydnomalarni tayyorlash;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlariga asosan oylik maoshlar oshganda qaytadan hisob-kitob qilish;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabrda PQ-60 "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori va 2021 yil 24 dekabrda PQ-61 "Davlat oliy

ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida ishlarni tashkil etish;

- reja-moliya bo'limi vazifalariga taalluqli boshqa ishlarni bajarish.

### **3.Bo'limning huquq va majburiyatlari**

#### **Bo'lim quyidagi xuquqlarga ega:**

- bo'lim vakolatlariga kirgan zaruriy ishlarni amalga oshirish uchun institutning tegishli bo'linmalaridan (fakul'tetlar, kafedralar va bo'limlar) axborotlar taqdim qilishni talab qilish;

- institutning tegishli tarkibiy bo'linmalariga moliyaviy hisobotlari bo'yicha ko'rsatmalar berish va topshiriqlarning ijrosini talab qilish;

- reja-moliya bo'limiga taalluqli yuqori tashkilotlardan keladigan yo'riqnoma xatlar, modemogrammalar, so'rovnomalar va boshqa xujjatlarga javob xati tayyorlaydi;

- amaldagi me'yoriy xujjatlarga asosanib institutning byudjetdan tashqari mablag'laridan foydalanish va ularni shakllantirish bo'yicha institutning Kuzatuv Kengashiga takliflar kiritish;

- bo'lim xodimlarini ish faoliyati natijalariga ko'ra o'rnatilgan tartibda rag'batlantirish yoki choralar ko'rish bo'yicha institut rahbariyatiga takliflar kiritish;

- qonunchilik xujjatlariga muvofiq boshqa xuquqlarga xam ega bo'lishi mumkin.

#### **Quyidagilar bo'limning majburiyatlari hisoblanadi:**

- qonunchilik xujjatlariga muvofiq institutning kalendar' yiliga mo'ljallangan xarajatlar smetasini xamda byudjetdan tashqari mablag'lar daromadlari va xarajatlarini amalga oshirish;

- smeta xarajatlarida ko'rsatilgan mablag'lardan o'z maqsadlari yo'lida to'g'ri foydalanishni, o'rinsiz yoki ortiqcha harajatga yo'l qo'ymaslikni nazoratga olish;

- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligiga va boshqa yuqori tashkilotlarga ma'lumotlarni, choraklik va yillik xisobotlarni tuzish va taqdim etish;

- institutning reja-moliya faoliyati bilan bog'liq masalalarga doir ko'rsatma xujjatlarni hisobga olish va tartibga solib borish. Ularni institutning tegishli mutasaddi rahbarlari bilan birgalikda bajarilishini tashkil etish;

- qonun hujjatlariga muvofiq bo'lim zimmasiga boshqa majburiyatlar xam yuklanishi mumkin.